

“Open bank” aksiyadorlik jamiyati
Kuzatuv kengashining
2025-yil 21 - oktabr dagi
21-10/4 -sonli yig‘ilish bayonnomasiga
28 -ilova

openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-114</u>
	Sana: "№ <u>21</u> " <u>Oktabr</u> <u>2025</u> yil

**«OPEN BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATINING
AXBOROT SIYOSATI TO'G'RISIDAGI
NIZOM**

Toshkent – 2025-yil.

Mazkur "Open bank" aksiyadorlik jamiyatining axborot siyosati to'g'risidagi nizom" (keyingi o'rinlarda Nizom deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlariga hamda "Open bank" aksiyadorlik jamiyati Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom ochiq axborotlarning oshkor etish maqsadlari va tamoyillari, "Open bank" aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda Bank deb yuritiladi)ning rasmiy veb sahifasi jumladan, boshqa axborot kanallari orqali oshkor etilishi majburiy hisoblangan ma'lumotlar ro'yxati va ularni oshkor etish tartibi, muddatlari, shakllari, shuningdek, bank xodimlarining ochiq ma'lumotlarning oshkor etilishidagi majburiyatlari, Bankning boshqaruv organlari, mansabdor shaxslari, xodimlari bilan manfaatdor shaxslar, jumladan, aksiyadorlar, investorlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari o'rtasida ma'lumotlar almashinuv tartibi va axborot siyosatiga rioya qilinishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni belgilab beradi.

2. Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

manfaatdor shaxslar - Bank faoliyatidan manfaat ko'ruvchi shaxslar, jumladan, aksiyadorlar, Bankning salohiyatli investorlari, qimmatli qog'ozlar bozorining ishtirokchilari;

axborot - taqdim etish shaklidan qat'iy nazar bo'lgan ma'lumot (xabar, axborot);

oshkor qilinishi majbur bo'lgan axborot - amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq oshkor etiladigan ma'lumotlar;

maxfiy axborot - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq foydalanish cheklangan, davlat sirlariga mansub axborot mavjud bo'lmagan hujjatlashtirilgan axborot;


aksiyalar narxinnig o'zgarishiga ta'sir etuvchi axborotlar - Bank boshqaruv organlaridagi o'zgarishlar, bank faoliyatining moliyaviy va daromadlik ko'rsatkichlarining o'zgarishi, dividendlar hajmi va shu kabilar.

3. Axborot siyosatining asosiy maqsadi aksiyadorlar, investorlar, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari, shuningdek boshqa manfaatdor shaxslarning Bank va uning faoliyati to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlarga bo'lgan talabini qondirish orqali Bank faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashdan iboratdir.

4. Axborot siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Bankning axborot siyosatining asosiy tamoyillarini belgilash;

barcha manfaatdor shaxslarga Bank to'g'risida axborot taqdim etish qoida va tartiblarini belgilash;



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>1-114</u>
	Sana: "№ <u>22</u> " <u>oktabr</u> 202 <u>5</u> yil

Bank axborotlarining xavfsizligini ta'minlash;

Bank axborotlarining oshkoraligi va shaffofligini oshirish hisobiga Bankning investitsion jalb etish qobiliyati o'sishini ta'minlaydigan qo'shimcha axborotlarning oshkoralik tamoyillarini belgilash.

2-bob. Axborot siyosatining asosiy tamoyillari

5. Axborot siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan tashkil topadi:

doimiylik - Bank faoliyatiga oid axborotlarni manfaatdor shaxslarga doimiy taqdim etib borish;

tezkorlik - manfaatdor shaxslarni Bankning moliyaviy faoliyatiga ta'sir etuvchi muhim voqealar va faktlari bilan qisqa muddatlarda xabardor qilish;

qulaylilik - manfaatdor shaxslarning erkin foydalanishi uchun Bank faoliyatiga oid axborotlarni oshkor etilishini turli xil yo'llar orqali amalga oshirish;

to'liqlilik - manfaatdor shaxslarning Bank to'g'risida to'liq tassavurga ega bo'lishini ta'minlash uchun Bankning amaldagi faoliyati va u uchun salbiy bo'lgan ma'lumotlarni ham inkor etmagan holda taqdim etish;

teng huquqlilik - Bank faoliyatiga oid axborotlarni olishda barcha manfaatdor shaxslar uchun huquqlarning tengligi;

tenglik - Bankning tijorat manfaatlarini ta'minlagan holda Bank faoliyatining ochiqchilik va shaffofligi o'rtasidagi tengligini ta'minlash. Bunda quyidagilar ta'minlanishi shart:

-maxfiy axborotlarning himoyalanganligi;

-insayderlarga doir axborotlarning taqdim etilishida amaldagi qonunchilik talablariga amal qilish.

axborot resurslarining himoyalanganligi - tijorat siri yoki boshqa maxfiy hisoblangan axborotlarni amaldagi qonunchilikka muvofiq axborot xavfsizligini ta'minlash.

6. Qimmatli qog'ozlar emitenti sifatida Bank tomonidan oshkor etilishi majburiy hisoblangan axborotlar ro'yxati va taqdim etish muddatlari amaldagi qonunchilikka asosan amalga oshiriladi.

7. Bank bank siriga doir ma'lumotlarning xavfsizligini amaldagi qonunchilikka asosan ta'minlaydi.

8. Bank va uning faoliyati to'g'risidagi axborotlarning to'liqliligi va haqqoniyliги bo'yicha javobgarlik Bank Boshqaruvi zimmasiga yuklatiladi.


9. Ushbu Nizomga asosan oshkor qilishga mo'ljallangan axborotlar o'zbek tilida oshkor qilinadi, zarur hollarda boshqa tillarda ham oshkor qilinishi mumkin.

3-bob. Axborotlashtirish hamda axborotni oshkor qilish shakllari va yo'llari, shuningdek axborotlarni oshkor qilishda qo'llaniladigan vositalar

10. Bank faoliyati to'g'risida tarqatilayotgan axborot uch guruhga bo'linadi:

a)majburiy oshkor etiladigan axborotlar;

b)qo'shimcha oshkor etiladigan axborotlar;



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-114</u>
	Sana: "№ <u>22</u> " <u>oktabr</u> <u>2025</u> yil

v)erkin oshkor etiladigan axborotlar.

11. Bank tomonidan axborotlarning tarqatilishida turli xil yo'llardan foydalaniladi. Axborot tarqatish kanallari Bank tomonidan oshkor etilayotgan axborotlarni manfaatdor shaxslar uchun erkin va qulay bo'lishini ta'minlaydi.

12. Mazkur Nizom talablariga muvofiq Bank ommaviy axborot vositalari vakillari bilan quyidagicha munosabatda bo'ladi:

- Bank faoliyatidagi hodisalar bo'yicha press-revizlar tarqatish;
- Bank rahbariyati bilan ommaviy axborot vositalari vakillari o'rtasida press-konferensiyalar va uchrashuvlarni o'tkazish;
- ommaviy axborot vositalari vakillarining axborot so'rovlariga tezkor va aniq javob berish;
- ommaviy axborot vositalari vakillarini taklif etgan holda konferensiya, seminar va boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etish;
- Bank veb sahifasining tegishli bo'limlarini doimiy ravishda yangilab va to'ldirib borish.

13. Ommaviy axborot vositalarida rejalashtirilgan chiqishlar, undagi axborot tarkibi, mazkur Nizom talablariga asosan, shuningdek, Bank Boshqaruvi tomonidan belgilanadi.

14. Ushbu Nizomda ko'rsatilgan axborotlarni tarqatishda Bank quyidagi kommunikatsion vositalarini qo'llashi mumkin:

audiovizual tashuvchilar - videoroliklar, korporativ vidoyefilmlar, tele va radio dasturlarda intervyu berish va ishtirok etish, majlislar, konferensiyalar, marosimlarda namoyish etiladigan slaydlar va boshqa vositalar;

ichki va tashqi maqsadlar uchun tayyorlangan yozma hujjatlar - press-revizlar, nashr uchun xabarlar, broshyuralar, xodimlar uchun informatsion materiallar va jurnallar, ommaviy axborot vositalari uchun maqolalar;

og'zaki xabarlar - izohlar, intervyular, press-konferensiyalar, ichki taqdimotlar yoki dokladlar, barcha yo'nalishlardagi ommaviy tadbirlarda chiqishlar;

elektron materiallar - elektron pochta, "internet" tarmog'ida resurslar, Bankning internet portali, ichki korporativ tarmoq resurslari.


4-bob. Majburiy, qo'shimcha va erkin oshkor etiladigan axborotlar ro'yxati, taqdim etish tartibi va muddatlari

15. Bank tomonidan oshkor etilishi majburiy hisoblangan axborotlar qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshiradi.

16. Bank tomonidan axborotlarning oshkor etilishi va tarqatilishi quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi:

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (qimmatli qog'ozlar bozori nazorati bo'yicha mas'ul davlat organi rasmiy veb sahifasi);

fond birjasining rasmiy veb sahifasi;



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-114</u>
	Sana: "№ <u>22</u> " <u>Oktyabr</u> 20 <u>25</u> yil

Bankning korporativ veb sahifasi;
ommaviy axborot vositalari;
internet portallarida joylashtirish;
bosma nashrlarda chop etish;
manfaatdor shaxslar bilan axborot seminarlari va boshqa turdagi uchrashuvlarni tashkil etish.

17. Qimmatli qog'ozlar bozorini nazorati bo'yicha mas'ul davlat organi yoki fond birjasi rasmiy veb sahifasida majburiy oshkor etiladigan axborotlar:

- qimmatli qog'ozlar emissiya prospekti (qimmatli qog'ozlar barchaga sotilishi ko'zda tutilgan holatda):

- Bankning yillik hisoboti, shu jumladan, auditorlik tashkilotining xulosasi va xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobot;

- Bankning birinchi chorak, yarim yillik va 9 oylik hisobotlari;

- Bank faoliyatiga oid muhim faktlar.

Bank yuqorida qayd etilgan axborotlarining oshkor etilish tartibi, muddati va taqdim etish shakllarini qonun hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshiradi.

18. Bank qimmatli qog'ozlari fond birjasining kotirovka listingida qo'yilganda axborotlar qonunchilikka asosan oshkor etiladi.

19. Bank tomonidan ommaviy axborot vositalari orqali oshkor etilishi majburiy hisoblangan axborotlar:

- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazilishi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- Bankning manzili (pochta adresi) va elektron pochta adresining o'zgarganligi to'g'risidagi ma'lumot;

- aksiya yoki emission qimmatli qog'oz sotib olish huquqiga ega Bank aksiyadorlariga takliflar;

- Bank tomonidan aksiyalarning qayta sotib olinishi to'g'risidagi ma'lumot;

- Bankni tugatish to'g'risidagi ma'lumot, shuningdek kreditorlarga bo'lgan talablarini ko'rib chiqish tartibi va muddatlari.

20. Bankning rasmiy veb sahifasida qo'shimcha oshkor etiladigan axborotlar:

- korporativ boshqaruv Kodeksi tavsiyalariga amal qilish majburiyatini qabul qilganligi to'g'risidagi axborot;


- Bank Boshqaruvi to'g'risida ma'lumot;

- Bankning boshqaruv organi va Korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini baholash natijalari;

- Bank aksiyalarining 20 foizidan ortig'iga egalik qiluvchi aksiyadorlar to'g'risida ma'lumot;

- sof foydaning taqsimlanish asoslari, dividendlar hajmi va dividend siyosatiga to'g'ri kelishi, shuningdek, zarur hollarda sof foydaning bir qismini Bankni rivojlantirishga yo'naltirilganligi bo'yicha tushuntirish va iqtisodiy asoslar;

- aksiyalar kotirovkasi to'g'risida axborot, shuningdek fundamental va texnik tahlil natijalari, mutaxassislar, ekspertlar va maslahatchilarning prognoz va



sharhlari;

- xayriya (homiylilik) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) bo'yicha qaror qabul qilish tartibi hamda haqiqatda xayriya (homiylilik) yoki beg'araz yordam ko'rsatilganligi (olinganligi) to'g'risida axborot.

21. Bank majburiy oshkoralik bilan bir qatorda o'z faoliyati to'g'risida Bank obro'yiga ijobiy hamda uning aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarining narxiga obyektiv ta'sir ko'rsatadigan axborotlarni erkin oshkor qilishi mumkin. Bank tomonidan erkin oshkor etiladigan axborotlar:

- Bankning moliyaviy holati va faoliyati natijalari to'g'risidagi Bank rahbariyatining tahlil va izohlari;

- Bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridagi o'zgarishlar;

- faoliyat natijalari to'g'risidagi choraklik qo'shimcha hisobotlar;

- Bank to'g'risida belgilangan tartibda oshkor etilgan axborotlarga vakolatli shaxslarning izohlari;

- Bank vakillarining moliyaviy faoliyat bilan bog'liq taqdimotlari va chiqishlari;

- Bank nomining o'zgarishi;

- Bank ustav kapitalining oshishi (kamayishi) to'g'risidagi qaror;

- auditor, registrator yoki Bank depozitariysining o'zgarishi;

- Bank aksiyadorlari soni haqida ma'lumot;

- ovoz berish huquqiga ega bo'lgan, shuningdek sotuvda bo'lgan aksiyalar soni to'g'risida ma'lumot;

- Bank aksiyalarning besh yoki undan ortig'ini tashkil qiladigan aksiyadorlari to'g'risida ma'lumot;

- Bank tomonidan oshkor etilishi ma'qul deb hisoblangan boshqa ma'lumotlar.

22. Bankning yillik moliyaviy hisobotlari amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq chop etiladi.

23. Bank rasmiy veb sahifasini ingliz, rus va boshqa tillarda shakllantirish bilan birgalikda unga manfaatdor shaxslar uchun qulay bo'lishi uchun barcha axborotlarni davlat tilida yoki boshqa tillardagi tarjimasini bilan joylashtirilishini ma'qullaydi.

5-bob. Axborot oshkor qilishning boshqa ko'rinishlari

24. Davlat organlaridan tashqari boshqa tashkilotlar talabnomalari bo'yicha axborot berish amaldagi qonunchilik talablariga asosan amalga oshiriladi.

25. Tashqi auditorlik kompaniyalari, maslahat tashkilotlari va reyting taqdim etuvchi boshqa tashkilotlar bilan bo'lgan o'zaro munosabatda axborot taqdim etish ular bilan tuzilgan shartnoma va amaldagi qonunchilik talablariga asosan amalga oshiriladi.

26. Investorlar va analitiklar bilan o'zaro hamkorlikda Bank axborot



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-119</u>
	Sana: "№ <u>11</u> " <u>Oktyabr</u> 20 <u>25</u> yil

oshkoraligini kuchaytirishga qaratilgan bir qator tadbirlarni amalga oshirishi mumkin, jumladan:

- Bank faoliyatiga doir press-relizlar tarqatish;
- investorlar va analitiklar uchun uchrashuvlar va taqdimotlar tashkil etish, shuningdek Bankning mas'ul shaxslari safari vaqtida;
- konferens-qo'ng'iroqlar;
- ommaviy axborot vositalarida nashrlar, Bank veb sahifasidagi yangiliklar.

6-bob. Bank tomonidan oshkor etilgan axborotlarga izohlar berish

27. Avval oshkor etilgan axborotlarga izoh berish Bankning mas'ul shaxslari tomonidan amalga oshiriladi.

28. Bank Kuzatuv kengashi a'zolari Kuzatuv kengash yig'ilishlarida ko'rilgan masalalar bo'yicha izoh berishlari mumkin. Bank faoliyati bilan bog'liq boshqa holatlarda esa Bank tomonidan axborot oshkor etilgandan so'ng faqatgina o'z nomlaridan izoh beradilar.

29. Bank Boshqaruvi raisi o'z nomidan va Bank Boshqaruvi nomidan izohlar berishi mumkin.


7-bob. Bankning rasmiy veb sahifasida axborotlarni oshkor etish

30. Bankning rasmiy veb sahifasi axborotini oshkor qilishning asosiy manbai bo'lib hisoblanadi. Bank veb sahifasida Bank faoliyati to'g'risidagi obyektiv axborotlar joylashtiriladi.

31. Bank to'g'risida oshkor qilinayotgan axborotlar o'zbek tilida, zarur hollarda rus va ingliz tillarida joylashtiriladi.

32. Bank veb sahifasida majburiy joylashtirilishi kerak bo'lgan axborotlar:

- Bank faoliyatining predmeti va maqsadlari;
- Bank ustavi shu jumladan, unga o'zgartirish va qo'shimchalar hamda tasdiqlangan biznes-rejalari;
- Bank rivojlantirishning strategiyasi to'g'risidagi axborot;
- Bankning tashkiliy tuzilmasi, manzili (pochta va elektron manzillari), ish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- Bank rahbarlari to'g'risidagi ma'lumotnoma-axborot;
- bo'sh ish o'rinlari va nomzodlarga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- Bankning affillangan shaxslari ro'yxati;
- amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq oshkor qilinishi lozim bo'lgan Bank faoliyatidagi muhim faktlar;
- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qaror qabul qilish yuzasidan kun tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- qimmatli qog'ozlar emissiyasi prospektlari, shuningdek qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq oshkor qilinishi kerak bo'lgan Bankning choraklik va yillik hisobotlari;



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-114</u>
	Sana: "№ 11" <u>oktabr</u> 20 <u>25</u> yil

- Bank tomonidan o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar (majlislar, kengashlar, uchrashuvlar, matbuot konferensiyalari, seminarlar va brifinglar, davra suhbatlari, rasmiy tashriflar) to'g'risidagi ma'lumotlar, press-revizlar va kundalik faoliyat to'g'risidagi boshqa axborot;

- Bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati hamda ular to'g'risidagi ma'lumotlar;

- Bankning moliya-xo'jalik holatini va uni rivojlantirish dinamikasini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar to'g'risidagi muhim ma'lumotlar, Bank faoliyati to'g'risidagi axborot tusidagi tahliliy sharhlar;

- hisoblangan va to'langan dividendlar;

- yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari bo'yicha auditorlik tashkilotining xulosasi va xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobot;

- Bank tomonidan aksiyalar sotib olinishi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- korporativ veb sahifasidagi axborot materiallaridan boshqa shaxslar foydalanganda Bankning korporativ veb sahifasiga majburiy havolalar ko'rsatilishi to'g'risidagi talab;

- Bankning korporativ veb sahifasida joylashtirishni Bank zarur deb hisoblaydigan boshqa ma'lumotlar.

33. Bank veb sahifasi mazmuniga qo'yiladigan talablar:

- joylashtirilgan axborot ishonchli bo'lishi va Bank faoliyatini xolisona yoritishi;

- Bankning korporativ veb sahifasida bank siriga va xizmatda foydalanish uchun tegishli bo'lgan axborot, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq e'lon qilish va tarqatish taqiqlangan boshqa axborot bo'lmasligi kerak.


8-bob. Bank boshqaruv organlari a'zolari, mansabdor shaxslar va xodimlarning mafaatdor shaxslar bilan axborot almashinuv tartibi

34. Bank boshqaruv organlari a'zolari, mansabdor shaxslar va xodimlarning mafaatdor shaxslar bilan axborot almashinuvini amalga oshirish bo'yicha mas'ul xodim tayinlanadi.

35. Manfaatdor shaxslar tomonidan axborot taqdim etish bo'yicha yozma (elektron) murojaat taqdim etilganda, mas'ul xodim mazkur Nizomga hamda amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq barcha kerakli axborotlarni elektron ko'rinishda taqdim etadi.

36. Aksiyador talabiga ko'ra aksiyador va investorlarga zarur bo'lgan muayyan (maxfiy va tijorat siri bo'lgan axborotlardan tashqari) axborotlar imkon qadar qisqa muddat ichida taqdim etiladi.

37. Aksiyador Bank va Bank faoliyati bilan bog'liq hamda xizmat va tijorat siri hisoblangan ma'lumotlarni, qonunchilikka muvofiq sir saqlanadigan boshqa axborotlarni oshkor etish huquqiga ega emas.



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-114</u>
	Sana: "№ <u>22</u> " <u>oktabr</u> 20 <u>15</u> yil

**9-bob. Axborot siyosatiga amal qilish bo'yicha nazoratni
ta'minlash chora-tadbirlari**

38. Ushbu Nizomda ko'rsatilgan Axborotni oshkor qilishga va ommaviy axborot vositalarida Bank haqida axborotni oshkor qilishga javobgar shaxslar Bank boshqaruv organlari tomonidan vakolat berilgan shaxslar hisoblanadi.

39. Axborotlarning to'liqlik, ishonchlilik va o'z vaqtida oshkor etilishi bo'yicha javobgarlik Bank Boshqaruvi zimmasiga yuklatiladi.

10-bob. Yakuniy qoidalar

40. Bankning tegishli rahbar va xodimlari tomonidan mazkur Nizomning asosiy yo'nalishlariga to'liq rioya qilinmagan taqdirda ularga nisbatan amaldagi tartib-qoidalarga asosan intizomiy choralar o'rnatilgan tartibda qo'llaniladi.

41. Mazkur Nizomga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

42. Mazkur Nizom bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

43. Ushbu Nizomning alohida bandlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga zid bo'lsa, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu bandlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari normalariga amal qilinadi.

openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-114</u>
	Sana: "№ <u>22</u> " <u>oktabr</u> <u>2025</u> yil

YURIDIK XULOSA
(ichki qoidani huquqiy ekspertizadan o'tkazish to'g'risida)

Toshkent shahar

“ 07 ” 10 2025 yil

Ekspertiza o'tkazuvchi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning (keyingi o'rinlarda “Bank” deb yuritiladi) Yuridik boshqarmasi.

Ekspertizadan o'tkazilgan me'yoriy hujjat nomi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatining axborot siyosati to'g'risidagi nizom (keyingi o'rinlarda “ichki qoida” deb yuritiladi).

Ekspertiza o'tkazishda foydalanilgan qonunchilik va me'yoriy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunlari, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida nizomi va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari, hamda “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning ustavi va boshqa ichki me'yoriy hujjatlar (keyingi o'rinlarda “qonunchilik va me'yoriy hujjatlar”).

Mazkur ichki qoida qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Bankning rasmiy veb sahifasi jumladan, boshqa axborot kanallari orqali oshkor etilishi majburiy hisoblangan ma'lumotlar ro'yxati va ularni oshkor etish tartibi, muddatlari, shakllari, Bankning boshqaruv organlari, mansabdor shaxslari, xodimlari bilan manfaatdor shaxslar, hamda ommaviy axborot vositalari vakillari o'rtasida ma'lumotlar almashinuv tartibi va axborot siyosatiga rioya qilinishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni belgilab beradi.

Ushbu ichki qoida ishlab chiqishda qonunchilik texnikasi qoidalariga rioya qilingan.

Mazkur ichki qoida, agar unda boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan kuchga kiradi.

Ushbu ichki qoidaga o'zgartirish va qo'shimchalar Bankning Kuzatuv kengashining qarori asosida kiritiladi.

Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarida ishlab chiqilishi belgilangan ichki qoidalar, shuningdek ularga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar tijorat banklari tomonidan tasdiqlangandan so'ng 15 (o'n besh) kun ichida Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.

**“Open bank” aksiyadorlik jamiyatning
Yuridik boshqarmasi boshlig'i
S.I. Salimov**